

Xemingueyning “Chol va Dengiz” qissasi

Normurodov Kamol Ikramovich, JDPI

Xaydarova Dilorom Akramovna, JDPI

Ernest Xeminguey (Ernest Hemingway, 1899-1961) ning “Chol va Dengiz” (The Old Man and the Sea, 1952) qissasi deyarli bir ovozdan, yakdillik bilan durdona asar deya e’tirof etildi va muallif bu asari uchun 1954 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo’lishiga asosiy omil bo’lib xizmat qildi. Bu asar tabiat kuchlariga yengilishi muqarrar, biroq qahramonona qarshi turgan, olamda yolg’iz qolgan kishi haqida hikoya qiladi, shafqatsiz olamda taqdirning azaliy adolatsizligiga to’qnashib, unga faqat o’z matonatiga ishonish, sabr-toqatiga umid qilishi qoladi. Keksa dengizchi tutib olgan katta baliqni nahanglar g’ajib tashlagani va ular bilan olishgani haqida hikoya qiluvchi allegorik, ya’ni majoziy ma’nolarga to’la qissa Xemingueyni ko’z oldimizda mohir hikoyachi sifatida gavdalantiradi. Xeminguey ishlab chiqqan o’ziga xos uslubiga intellektualnoziklikni hush ko’rmaslik, ruhiy, ma’naviy-ahloqiy qadriyatlar yaqqol namoyon bo’layotgan vaziyatlarni tasvirlashga moyillik mosdir.

“Chol va Dengiz ” qissasi-bu o’ziga xos ramzli hikoya, unda muallifning falsafa va dunyoqarashi: eng avvalo insonga, uning aql zakovatiga, ruhiy kuchiga, qolaversa yuksak burchiga bo’lgan qat’iy ishonch bir joyga jamlanib yaqqol ifoda etilgan. Yozuvchining “Inson mag’lubiyatlarga uchrash uchun yaratilmagan” qabilidagi fikri, odamlarning mustahkam birligi, qardoshligini qaror toptirishva bir vaqtning o’zida inson taqdiriga fojeali qarashdir, chunki taqdiri yengib chiqishga harakat qilish, pirovardida behudaurinish bo’lib chiqadi. Xeminguey hikoyalar to’plamining birida “G’olib hech narsa yutmaydi”, degan fikrni bildirgan ediva bu yuqoridagi fikr bilan hamohang yangraydi.

Qissa syujeti bir nechta kun bilan chegaralanga: voqea Kubada sodir bo’ladi, Santyago ismli kekse dengizchining yolg’izlikda kechayotgan hayotiga Manolo ismli bolakay bilan har zamonda olib borayotgan suhbatlar jon va qandaydir bir ma’no kiritadi. Baliq ovlash niyatida Santyago bir o’zi eski qayiqda Karib

dengiziga chiqadi, aql bovar qilmas kuchni ishga solib, qarmoqqa ulkan baliqni tutib oladi va u bilan uzoq vaqt olishadi, ohir-oqibat uni yangib chiqadi, ammo tabiatning boshqa bir mo'jizasi ro'y beradi. Bandargohga qaytayotgan paytida baliqqa bahaybat nahanglar tashlanib, uni g'ajib tashlaydi va cholga hech narsa qolmaydi. Nima bo'lganda ham qat'iy chegaralangan syujet doirasiga teran falsafiy fikrlar, chuqur mazmunga boy mavzular majmuasi kiritilgan bo'lib, muallif nafaqat zahmatkash insonning uzun, mashaqqatli va munosib hayoti tarixini ochib beradi, balki azaliy va abadiy savollar-hayot ma'nosi qadr-qimmatini, avlodlar almashinuvi, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar meros bo'lib o'tishi, insonlar birdamligi, odam va tabiat birligi haqida savollarni ko'tarib chiqadi. Hikoyaning umumiy falsafiy yakuni bir ma'noga ega: "Insonni yuq qilib tashlash mumkin, ammo uni yengish aslo mumkin emas".

Jahon adbiyoti hazinasiga Xeminguey yaratgan asarlarning nafaqat obraz, g'oya, mavzulari, balki uning psixologik jihatdan to'yintirilgan badiiy tasvir uslubini ham kirdi, bu adabiy tanqidchilikda "aysberg uslubi" deya e'tirof etildi. Bu uslub "Bizning zamonlarda" (In Our Time, 1925), "Ayollarsiz erkaklar" (Men without Women, 1927), "Alvido, qurol!" (A Farewell to arms!, 1929), "G'olibga hech narsa kerakmas" (Winner Take Nothing, 1933) kabi to'plamlarga jamlangan hikoyalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Suv sathida ko'rinib turgan aysbergning ko'zga ko'rinarli qismi ummon qa'risida umrbod yashiringan qismidan qancha kichik bo'lsa, Xemingueyning qisqa va lo'nda hikoya qilish uslubi ham shu darajada faqatgina "tashqi belgi", aniqroq qilib aytganda, qiyofani tasvirlaydi: o'z o'rnida kitobxon ularga tayanib, muallif fikriga yo qo'shiladi, yo qo'shilmaydi, deyish mumkinki, muallif aytmoqchi bo'lganini tushunib yetad, murakkab hayotiy qarama-qarshiliklarni o'qinuvchilarga duch keladi va o'ziga badiiy olamni kashf etad, bu olamni o'zining keng miqyosi jihatidan asardagi kichik olam bilan aslo taqqoslab bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kashkin I. Ernest Xeminguey.-M.: Xudoj.lit-ra., 1966. 297 s.

2. Baker C. Hemingway: the writer as artist.-New York: Princeton Univers. Press, 1973.- XX, 438 p.;
3. Hemingway E. The Old Man and the Sea.-M.: Progress, 1967,-132 p.